

**TARBIYASI OG‘IR O‘QUVCHILAR BILAN PSIXOLOGIK  
TARG‘IBOT VA TASHVIQOT ISHLARINI OLIB BORISHNING  
ZAMONAVIY PSIXOLOGIK USULLARI**

*Otabek Vaitov Xalilovich*

*Normurodova Gulzebo Boboqulovna*

*Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani*

*3- maktab psixologlari*

**ANNOTATSIYA:**

Ushbu ishda tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida psixologik yondashuv, targ‘ibot va tashviqot ishlarining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, o‘quvchining xulqini o‘zgartirishda oila, maktab va psixolog hamkorligi qanday rol o‘ynashi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** tarbiyasi og‘ir o‘quvchi, xulq-atvor, psixologik yordam, targ‘ibot, tashviqot, motivatsiya, maktab, oila, muhit, individual yondashuv.

**KIRISH**

“Tarbiyasi og‘ir bola” deganda odatda xulq-atvori, o‘qish jarayoni yoki ijtimoiy muhitda muammoli holatlar ko‘rsatadigan bola tushuniladi.

Bunday bolalarda quyidagilar kuzatilishi mumkin:

- darsga qiziqmaslik yoki o‘zlashtirishning pastligi
- kattalar (ota-ona, o‘qituvchi) gapiga quloq solmaslik
- jamoaga bilan kelisha olmaslik, tez-tez janjallashish
- qoida va tartiblarni buzish
- e‘tiborsizlik yoki hissiy beqarorlik
- Lekin muhim jihat shuki, bu “yomon bola” degani emas.

Odatda bunday holat:

- oiladagi muhit
- tarbiya uslubi

- psixologik muammolar
- do‘stlar ta’siri kabi omillar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Maktab amaliyotida har bir o‘qituvchi yoki psixolog kamida bir marta bo‘lsa ham “tarbiyasi og‘ir” deb atalayotgan o‘quvchilar bilan ishlashiga to‘g‘ri keladi. Aslida bunday bolalarni “yomon bola” deb atash to‘g‘ri emas. Ularning ichki dunyosida tushunilmagan muammolar, e’tiborsizlik yoki ruhiy bosim bo‘lishi mumkin.

Ko‘pincha bunday o‘quvchilar darsda faol emas, intizomga rioya qilmaydi, ba’zan esa atrofdagilarga nisbatan qo‘pol munosabatda bo‘lishi mumkin. Lekin bu faqat tashqi ko‘rinish. Asosiy sabablar esa ko‘pincha oilaviy muhit, do‘stlar ta’siri yoki ichki psixologik kechinmalar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Agar bola uyda o‘zini eshitilmayotgandek his qilsa, yoki doimiy tanqid ostida yashasa, u asta-sekin maktabda ham qarshilik ko‘rsata boshlaydi. Ba’zi bolalar esa aksincha, butunlay yopilib qoladi va o‘z ichiga kirib ketadi. Har ikkala holat ham e’tibor talab qiladi.

Shu o‘rinda psixologik targ‘ibot va tashviqot ishlarining ahamiyati katta. Bu ishlar faqatgina ma’ruza yoki tanbeh berish emas, balki bola bilan do‘stona suhbat qurish, uni tushunishga harakat qilish, to‘g‘ri yo‘lni birga izlash demakdir. Bola o‘zini eshitishayotganini his qilsa, uning xulqi ham asta-sekin o‘zgaradi.

Maktab psixologi bunday bolalar bilan alohida ishlashi kerak. Avvalo ishonch o‘rnatish muhim. Bola psixologga ishonmasa, hech qanday natijaga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun suhbatlar majburlovsiz, yumshoq va samimiy bo‘lishi kerak.

Sinf rahbari ham bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. U o‘quvchini doimiy kuzatadi, uning kayfiyati va xulqidagi o‘zgarishlarni sezib boradi. Eng muhimi, uni faqat tanqid qilish emas, balki ijobiy tomonlarini ham ko‘rsatishdir.

Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlashda targ‘ibot ishlari ham katta rol o‘ynaydi. Masalan, yaxshi xulqli o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ijobiy misollar

keltirish, guruh bo‘lib ishlash orqali bolalarda o‘zgarishga intilish paydo bo‘ladi. Bola “men ham shunday bo‘la olaman” degan fikrga kelishi juda muhim.

Shuningdek, bunday bolalarni turli to‘garaklarga, sportga yoki ijodiy mashg‘ulotlarga jalb qilish kerak. Chunki bola band bo‘lsa, uning noto‘g‘ri yo‘lga kirib ketish ehtimoli kamayadi. U o‘zini kerakli va foydali his qila boshlaydi.

Eng asosiy jihatlardan biri - ota-onalar bilan hamkorlikdir. Agar maktab va oila bir yo‘nalishda ishlamasa, natija sust bo‘ladi. Ota-ona bolani faqat tanqid qilmasdan, uni tinglashi va qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Tarbiyasi og‘ir bolalar va ular bilan ishlash har doim psixologlarning diqqat markazida bo‘lgan. Nima qilish kerak, ta'limga mos kelmaydigan, tajovuzkorlik, hissiy beqarorlik, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik, o'rganishni istamaslik, o'rganishga qiziqish yo'qligi, maktab motivatsiyasi past bo'lgan bolalar bilan qanday ishlash kerak? Psixologning qiyinchiliklarni, ularning sabablarini aniqlash va ushbu guruh bolalariga psixologik yordam ko'rsatishdagi roli zamonaviy dunyoda juda dolzarb va muhimdir. Maktab psixologlari oldida turgan vazifalar maktabda o'quv jarayonini optimallashtirishga yordam beradigan qulay psixologik muhitni yaratishdir. Maktab psixologi ko'pincha boshqa bolalardan sezilarli darajada farq qiladigan (minus belgisi bilan) bolalar bilan shug'ullanishi kerak. Psixologga u yoki bu tarbiyasi og‘ir bolaga "qandaydir tarzda ta'sir qilish" haqidagi so'rov o'qituvchilar va ota-onalarning tez-tez so'rovlaridan biridir. Shu bilan birga, turli xil maktab o'quvchilari tarbiyasi og‘ir toifasiga kiradi: o'qimagan, intizomsiz, turli xil asab va ruhiy kasalliklarga chalingan bolalar, voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyada ro'yxatga olingan o'spirinlar, disfunktsiyali va yolg'iz bolalar deb ataladigan bolalar.

Psixologiyada tarbiya atamasidan tur va inson faolligi darajasini uning faoliyati, mushohadasi, tafakkuri, muloqoti kabi ko‘rinishlari bilan bir qatorda

belgilash uchun keng foydalaniladi. Inson axloqi tog‘risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida uni psixologik fanning predmeti deb e‘lon qilgan vaqtdan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi. Tarbiyaning zamonaviy tushunchasi tashqi rag‘batga reaksiyalar to‘plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug‘atda tarbiya “tirik mavjudotga xos bolgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan ozaro ta'sirdir. Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko‘rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaksiyalar tushuniladi. Bolaning tarbiyasi tug‘ilishdan boshlanadi. Uning birinchi o‘qituvchilari ota-onalar, keyin bolalar bog‘chasi tarbiyachilari va shundan keyingina-maktab o‘qituvchilari. Afsuski, ular ham alohida, ham jamoaviy ravishda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Uning rivojlanishida bola bir joyda turmaydi, u oldinga siljiydi.

Ota-onasidan bola oddiy taqlid orqali buni qanday qilishni organadi, nima mumkin va nima mumkin emas. Bolaligida o‘z farzandiga yomon o‘rnak bo‘lgan ota-onalar voyaga yetganda ularning tarbiyasida yuzaga keladigan muammolardan xoli emaslar. Tarbiyasi og‘ir bolalar - bu rivojlanishda nuqsonlari bo‘lgan, xususan, axloqiy va deviant xulq-atvori, qat‘iy salbiy xatti-harakatlari bo‘lgan bolalar. Tarbiyasi og‘ir - bu bola, maktab o‘quvchisi bo‘lib, u alohida davolashni, o‘qituvchi va tengdoshlar guruhining diqqatini talab qiladi, bu individual yondashuvni talab qiladi. Ko‘pgina taniqli o‘qituvchilar va psixologlarning xulosalari, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, noto‘g‘ri xatti-harakatlar va huquqbuzarliklarning kelib chiqishi maktab yoshdagi bolalarda kuzatiladigan xattiharakatlar, o‘yinlar, organish yoki boshqa faoliyatdagi normadan chetga chiqishdir.

Deviant xulq-atvorning rivojlanishining boshlanishi odatda bolaning o‘zini shaxs sifatida anglashi, ijtimoiy me‘yorlar va qoidalarni qabul qilish yoki rad etish boshlanishiga to‘g‘ri keladi. Bunday xulq-atvor ko‘nikmalari, tegishli faoliyat talablariga bo‘ysunish qobiliyati singdirilmagan bola, oxir-oqibat, har

xil xatti-harakatlarning buzilishiga moyil bo'lgan intizomsiz shaxsga aylanadi. Bolaning ulg'ayishi va shaxs bolib shakllanishining asosiy davrida unge hamroh bo'lgan oqituvchilar ham o'zlarining kasbiy faolyatida koplax xatolarga yo'l qo'yadilar, bu esa bolaning pedagogik e'tiborsizligiga, deviant xulqatvoriga, turli xil jtimoiy og'ishlarga olib keladi.

Afsuski, katta yoshdagilarning hammasi ham bolani ruhiy kechinmalari to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lmaydi. Ruhiy holat insonning biron – bir tarzda ta'sir etuvchi xatti-harakatlariga berilgan chuqur shaxsiy emotsional bahodir.

Bolaga nohaqlik qattiq ta'sir qiladi. Bola qo'pol baqiriqda ham, mazax qilishda ham, yo'l-yo'lakay aytilgan tanbehda ham, kattalarning bolaga e'tiborsizligida ham nohaqlik ko'radi. Nohaqlik haqorat bo'lib tuyuladi, uning izzat nafsiga tegadi, g'azabini qo'zg'aydi, uning qalbida aktiv(naftrat) va passiv(g'iybat va ko'ra olmaslik) norozilikning turli tuman formalarini keltirib chiqaradi. Katta yoshdagi odamni yengilgina hayajonlantirgan narsa, bolada katta kulfatning manbai bo'lishi mumkin.

Ota-onaning yengil-yelpi mehnatni oqlab, oson pul toppish yo'llarini bolalar oldida maqtab gapirishlari, otaning o'z hamkorini mazax qilib, maqtanib aytgan gaplari bolaga axloqsizlik darajasini ochib beradi. "Tarbiyasi og'ir" va uzluksiz bo'lsagina ijobiy samara beradi. Odatda tartibsiz, intizomsiz, ishyoqmas, o'qishda qoloq va no'noq o'quvchilar "tarbiyasi og'ir" bola hisoblanadi. Tajribalardan ma'lumki, bolalar xarakter jihatdan xar hil bo'ladilar. Bunday bolalarning ayrimlari anomal xulq-atvorli, ba'zilari sotsial va bir qismi "tarbiyasi og'ir" bo'lishi mumkin. Axloq normalariga, jamiyat talablariga javob bermaydigan xulq-atvorli bolalar asotsial xulq-atvorli bolalar deb ataladi. Anomal xulq atvor va harakat bola miyasining kasalligi bilan bog'liq bo'ladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar – bular tarbiyada e'tibordan chetda qolgan, o'z xoliga tashlab qo'yilgan bolalardir. Ular qayerdadir, qachonlardir, kimlarningdir tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar, tarbiyalashda ularga

individual yondasha bilmaslik oqibatida paydo bo'ladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar murakkab tushuncha. Ularning har birida "tarbiyasi og'ir" boshqa bolalarga o'xshamagan, o'zigagina xos alohida individual xususiyatidir. O'z sababi, o'z xususiyati, o'zining normadan chetga chiqishi, o'zining tarbiya yo'li bo'ladi.

Boshqacha aytganda, normal ta'lim-tarbiya jarayonida chetda qolgan o'quvchilar, o'rtoqlari bilan normal munosabat o'rnatolmagan, qalb tug'yonlarini oshkor etishning tog'ri usullarini topa bilmagan bolalar "tarbiyasi og'ir" bolalar turiga kiradi. Bunday bolalarni o'z vaqtida payqab, ular bilan yaxshi ish olib borilmasa, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazilmasa, noxush ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lishi mumkin. Demak, "tarbiyasi og'ir" degan ibora o'ta salbiy ma'noni bildirmaydi. U yomon buzilgan, ishonchsiz bola emas. "Tarbiyasi og'ir" bolaga alohida munosabat, e'tibor va individual yondashuv zarur. Har qanday kasalni vaqtida davolagan maqul. E'tiborsiz qoldirilgan mayda-chuyda narsadan katta baxtsizlikka duchor bo'lish ehtimoli tug'iladi. Bolani "tarbiyasi og'ir" holatga olib boruvchi yagona sabab yo'q. Shuningdek ularni axloqsizlik illatlaridan sog'aytirib, mo'minqobil qilib qo'yadigan yagona shifobaxsh vosita ham yo'q.

Lekin shunisi ham aniq-ki, jamoatchilik nazoratining bo'shlig'i tufayli og'irlashgan noqulay shart-sharoitlar, tarbiya ishlarida yuzakilikka yo'l qo'yish o'smir hayotida salbiy oqibatlarga olib keladi. Tarbiya inson uchun kurash demakdir. Bolaning qanday bo'lishi – bu shaxsiy ish bo'lmay, balki jamoatchilikni qiziqtirgan muammodir bolani tarbiyalaganda, u qilgan gunohining mohiyatini yaxshi anglamasligi oqibatida nima bilan tugashini hali tasavvur qila bilmasligini hisobga olish ham muhim. U chinakam mard yigit bilan do'st, chin o'rtoq qilishni orzu qiladi. Yanglishib yoki adashib yomonlar ta'siriga tushib qolganda esa unga darhol tog'ri yo'l ko'rsatilsa, har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, tarbiyasi og‘ir o‘quvchi degan tushuncha aslida “yordamga muhtoj o‘quvchi” deganidir. Agar biz ularni tushunsak, sabr bilan yondashsak va to‘g‘ri psixologik usullarni qo‘llasak, har bir bolada ijobiy o‘zgarishga erishish mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Komilova N.G’. “Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2007 105 b
2. Tadjiyeva S.N. Sabirova.A.D. “Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish” Kurs o‘tkazish uchun xrestomatiya. Toshkent-2009 320 b
3. G.S.Tursunbayeva, G.M.Duschanova, J.S.Sadinov "Botanika" Toshkent 2020.
- 4.Q. X. Xaydarov, Q. X. Xojimatov. O‘zbekiston o‘simlilari. Toshkent 1992.
- 5.Ziyo.net